



KRIMINALISTIKADA HID IZLARI (ODOROLOGIYA)NING AHAMIYATI, XUSUSIYATI, TABIATI VA O'RGANISH MEXANIZMI

Yo'Ichixonova Sadoqatxon Abdumajit qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistri

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10057018>

ARTICLE INFO

Received: 24th October 2023

Accepted: 29th October 2023

Online: 30th October 2023

KEY WORDS

Odorologiya, odorologik identifikatsiya, monohidlar, hid namunalari, jinoyatni tergov qilish.

ABSTRACT

Mazkur maqola doirasida odorologiyaning fan sifatidagi asosiy mazmuni, jinoyatlarni ochishda va ularni tergov qilishda uning ahamiyati o'rganildi. Kriminalistik odorologiyani sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarni oldini olish uchun ham qo'llanilishi tahlil qilindi. Odorologik identifikatsiyaning hid namunalari aniqlashdagi mohiyati bayon etildi.

Odorologiya fan sifatida 1950-yillarda molekulyar biologiya, fiziologiya, bionika, kinologiya, kimyo, elektronika va boshqa tabiiy fanlarning rivojlanishi natijasida vujudga kelgan. Bu atamaning o'zi lotincha odor – hid va yunoncha logos – ta'lim, fan - so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, so'zma-so'z "hid haqidagi fan" degan ma'noni anglatadi. Muayyan mavzuni maxsus ishlab chiqilgan usullar bilan o'rganishga va tegishli muammolarni hal qilishga qaratilgan bilimlar tizimiga nisbatan "odorologiya" atamasi mustaqil ilmiy sohani belgilaydi.

Odorologiyaning ushbu yo'nalishi kriminalistik ododrologiya deb nomlanadi. Kriminalistik odorologiya fanning yangi yo'nalishi sifatida shakllanyotgani bois turli adabiyotlarda turlicha ta'rif beriladi. Masalan, M.V.Saltevskiy o'z qarashlarini shakllantirib borib, kriminalistik odorologiyaga turlicha ta'rif bergan.¹ Dastlab u quyidagicha ta'rif beradi: "Kriminalistik ododrologiya kriminalistikaning yangi yo'nalishi bo'lib, uning vazifasi jinoyatni ochish va tergov qilish maqsadida hid manabalarini aniqlash, saqlash va foydalanishni o'z ichiga oladi".

Ma'lum muddat o'tib u kriminalistik odorologiyani buyumlar, izlar va boshqa obyektlarning ma'lum bir shaxsga tegishli ekanligini aniqlash uchun hidlarni tadqiq qilish va aniqlash vositalari va maxsus usullar yig'indisi deb ta'riflaydi. Yana ushbu fan bilan shug'ullanish davomida, keyinchalik yanada mukammalroq ta'rif yaratishga muvaffaq bo'lgan. Unga ko'ra, kriminalistik odorologiya jinoyatni ochish va tergov qilish maqsadida ma'lumot olish uchun, hid izlarini to'plash, tadqiq qilish, foydalanish, aniqlash vositalari va usullari, hid hosil bo'lish mexanizmini tadqiq qiladigan kriminalistikaning bir yo'nalishidir.

¹ Салтевский, М. В. Криминалистическая одорология / М. В. Салтевский. — Киев, 2000. — 68 с.



M.V.Saltevskiydan farqli ravishda, R.S.Belkin kriminalistikada odorologiya yutuqlaridan foydalanishni sud odorologiyasi deb baholaydi va ushbu sohani shaxsni aniqlash maqsadida foydalaniladigan fan deb ta'riflagan.²

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi ta'riflardan M.V.Saltevskiyning kriminalistik odorologiyaga oid uchinchi ta'rifi ushbu soha vazifasini yaxshiroq va aniqroq ochib bergan. Haqiqatdan ham kriminalistik odorologiya hid izlarini o'rganadi va hid izlari asosida aniqlangan ma'lumotlardan foydalanish metodlarini nafaqat shaxsni tanib olish uchun, balki jinoyat sodir etilish vositalarini aniqlash uchun ishlab chiqadi. Bundan tashqari, kriminalistik odorologiya sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarni oldini olish uchun ham qo'llanilishi mumkin. Shuning uchun ham ushbu sohani faqatgina muayyan shaxslarga tegishli bo'lgan jinoyat joyidan olingan hid namunalarini maxsus o'rgatilgan qidiruv itlari yordamida aniqlash bilan shug'ullanadigan soha deb xulosa chiqarmaslik lozim.

Ko'p yillar davomida kriminalistik odorologiya bilan shug'ullangan A.I.Vinberg kriminalistik odorologiya deganda hid izlarining paydo bo'lishini, harakatlanishi va yo'qolishini, ushbu jarayonlar bilan bog'liq va ushbu jarayonlarni anglash davomida ishlab chiqilgan, jinoyatlarni ochish, tergov qilish va oldini olish maqsadida hid izlaridan olingan ma'lumotlarni foydalanish, to'plash, tadqiq qilish, saqlash metodlari, usullari va texnik vositalarni o'rganadigan kriminalistikaning bir bo'limi sifatida tushunish lozim deb ta'rif beradi.

Yuqorida ushbu fan bo'yicha faolyat yuritib, fan tarixida o'ziga xos iz qoldirgan kriminolistlarning fikrlari bilan tanishdik. Endi kriminalistik odorologiyaning xususiyatlari ahamiyati metodlariga to'xtalib o'tsak. Kriminalistik odorologiyaning obyektini ijtimoiy xavfli qilmish haqida ma'lumotlarni o'zida saqlagan hid izlarini hisoblanadi. Ushbu izlarni jinoyatchilikka qarshi kurashda qo'llash uning predmetini tashkil qiladi. Kriminalistik odorologiyaning predmetini yanada kengroq tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu fanning predmeti jinoyatchilikni oldini olish, ochish, tergov qilishda hid izlaridan foydalanish, ularni tadqiq qilish, to'plash, saqlash, hidlarning paydo bo'lish qonuniyatlari tizimidir.

Kriminalistik odorologiyaning ahamiyatini hozirgi kunda jinoyat qonunchiligida belgilangan, ularni ochishda odorologik tadqiqotlar o'tkazilishini taqazo etadigan bir necha moddalar maqjudligi bilan ham izohlash mumkin. Masalan, jinoyat kodeksida belgilangan narkotik va psixotrop moddalar, qurol, portlovchi moddalar tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlarni aniqlashda kriminalistik odorologiyaning o'rni kattadir.

Hid izlarini kriminalistikada qo'llanilishida ko'plab odorologlar kriminolistlarni o'rni beqiyos. Aynan ular hidning xususiyatlarini, tabiatini o'rganish va amalyotda turli metodikalar ishlab chiqish orqali kriminalistik odorologiyani fan darajasiga olib chiqqan. Dastlab hidning shakllanish tabiatiga to'xtalib o'tsak. Yuqorida tanishganimizdek, organik va anorganik kimyo nuqtai nazaridan olib qaraganda hid molekulari bug'lanish natijasida hosil bo'ladigan moddaning jonsiz materiyalaridir. Ilm-fanga ma'lumki, bug'lanish ham suyuq ham qattiq moddalardan molekularning ichki tortishish kuchini yengib, moddadan ajralib chiqadigan harorat ta'sirida sodir bo'ladi. Bunda ularning shakli o'zgarmaydi. Bunday molekular hid manbaining kimyoviy tarkibi to'g'risidagi to'liq ma'lumotni saqlab qoladi. Ushbu hidli moddalar

² Белкин, Р. С. Криминалистика: проблемы, тенденции, перспективы. От теории к практике / Р. С. Белкин. – М., 1988.



monohidlar deb ataladi. Ushbu sohada oziq-ovqat va parfyumeriya sanoatida foydalaniladigan hid beruvchi preparatlar tadqiqotchilari juda katta yutuqlarga erishgan.

Monohidlarni aniqlaydigan bir necha asboblar yaratilgan va ulardan ayrimlari kriministikada ham foydalaniladi. Masalan, "Poisk 1" deb atalgan murda izlaydigan qurilma, havoda etil spirit molekullari borligini aniqlaydigan qurilma (odatda ushbu qurilmadan haydovchilarning spirtli ichimliklar ichgan yoki ichmaganligini tekshirish uchun foydalaniladi), havoda turli gazlar mavjudligini aniqlaydigan sensorli apparatlar, hid izlarini namuna sifatida olish uchun foydalaniladigan "shershen" apparati va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin. Yuqoridagi asboblar kimyoviy, elektr, harorat, radioaktivlik va boshqa parametrlar asosida ishlaydi.

Yuqorida aytilgan barcha ta'riflar foydalalanishda ilm-fanga analiz va sizntezi ma'lum bo'lgan monohidlar haqida edi. Lekin biologiya nuqtai nazaridan quyidagi savollar tug'uladi. Tirik organizmlarning hid hosil bo'lishi asosi nimada? Tirik organizmlarda hidning hosil bo'lishi qayerdan boshlanadi? Hid ajralish jarayoni qanday yuz beradi? Hali zamonaviy ilm-fan ushbu savollarga javob topgani yo'q. Lekin shu narsa ma'lumki, agar tirik organizmlarda hid hosil bo'lish asosi aniqlansa, turli xil asboblar orqali hid manbaasni aniqlash imkoniyati paydo bo'ladi. Hozircha ancha arzon, hamyonbop, eng samarali, ishonchli, universal hid aniqlovchi itlarning hid sezish organlaridan foydalanish o'rinli.

Hid molekullarining qanday paydo bo'lishi ilm-fanga ma'lum emas, lekin shunga qaramay tajriba va ilmiy tadqiqotlarda aniqlangan faktlar asosida, shuni taxmin qilish mumkinki hid molekullari inson organizmining ichida paydo bo'ladi

Hayvon, shuningdek odamlarning hidi individual, doimiy ajraladigan, tashqi omillarga nisbatan barqaror, tirik organizmlardan ajraladigan diffuziyali birikmalardan iborat hisoblanadi. Olimlar tomonidan tasdiqlangan ma'lumotlarga ko'ra, asosiy hid beruvchi modda qonda, sochda, tirnoqlarda, tirik jonzotlar to'qimalari va organlarida, shuningdek so'lakda, terda ichki sekretsia bezlarida ishlab chiqariladigan boshqa ajralmalarda mavjud bo'ladi. Tirik organizmlardagi hid beruvchi moddaga iste'mol qilinayotgan mahsulotlar, dorilar hidi aralshuvi ham ta'sir qiladi. Shu tariqa tirik organizmlarning kompleks hidi vujudga keladi. Ushbu hidga odamlarda kiyimning, parfyumeriya mahsulotlarining yoki ish jarayonidagi muayyan hidlar ham qo'shiladi. (masalan, farmasevt va shifokorlarda dori preparatlarining hidi, haydovchilarda benzin va solyarka hidi)

Tajribalar natijasida shu narsa tasdiqlanganki, biror odam yoki hayvonning turli qismlaridan olingan hid namunlari maxsus tayyorlangan itlarga yaxshilab hidlatilib tekshirilgandagina qiyinchilik bilan aniqlangan, tananing bir joyidan olingan hid namunalari esa hech qanday qiyinchiliklarsiz aniqlangan. Ushbu tajribalardan olingan bilimlardan shunday xulosa qilish mumkinki, tirik organizmlarning kompleks hidi bir xil emas. Asosiy hidga tananing har xil qismlaridagi kimyoviy tarkibi bir-biridan farq qiladigan qo'shimcha hidlar aralashadi. Nima uchun asosiy hid tananing barcha qismlarida o'zgarmas, uning asosini nima tashkil qiladi degan savollar odorolog olimlar oldida turgan, aniqlanishi lozim bo'lgan masalalardan hisoblanadi. Ayrim olimlarning fikriga ko'ra, asosiy hidning ajralishi organizmning ichida sodir bo'ladigan murakkab, biologik reaksiyalarning natijasidir.

Hozirgi vaqtgacha tirik organizmlardagi hid moddasining ishlab chiqarilish jarayoni to'liq tadqiq qilinmagan. Lekin shu narsa aniqki, yuqoridagi jarayonning eng so'ngi bosqichi ter



ajralishidir. Ter-yog' bezlarining funksiyasi, terning ajralishi biologiyada o'rganilgan va hozirgi kunda tibbiyotda muayyan maqsadlarda foydalaniladi.

Ushbu o'rinda shu narsani qayd etish lozimki, odamning asosan yuz, oyoq va qo'l kaftlarida joylashgan ter bezlari kuniga 800 kub santimetr ter, yog' va boshqa hidli moddalar chiqaradi. Kuchli jismoniy harakatlar qilinganda 2,5 litrgacha ter ajralib chiqishi mumkin.³ Lekin hid asosining paydo bo'lishi va u o'tadigan jarayonni hali aniqlanmagnan bois, faqatgina taxmin qilish mumkin.

Anatomiya, biologiya, kimyo, fizika, boshqa fanlar va tajribalarga asoslangan holda, hid molekularining paydo bo'lish jarayonini quyidagicha tasavvur qilish mumkin. Ma'lumki, to'qimalarning tashkiliy qismi bo'lgan hujayralar o'z vazifasini bajarib bo'lib, nobud bo'ladi. Nobud bo'lgan hujayralarning bir qismi oziq moddalarga aylanadi, qolgan qismi shlaklarga aylanadi. Ular tanadan turli xil yo'llar bilan, jumladan, buyrakda filtranib peshob orqali yoki yo'g'on ichak orqali va teridagi ter-yog' bezlari orqali tashqariga chiqariladi. Nobud bo'lgan hujayralar va moddalar almashuvini natijasidagi moddalar qon orqali ushbu teriosti ter-yog' bezlariga keladi va shu yerdan teridagi mayda teshikchalardan terlash natijasida chiqib ketadi. Qon ushbu vaziyatda transport vazifasini bajaradi. Ushbu ter orqali chiqariladigan shlak tirik organizmlardagi metabolitlar deb ataladigan individual hidning asosini tashkil qiladi. Metabolitlar deganda organizmdagi moddalar almashuvini ta'minlaydigan hujayra ichidagi reaksiyalarda ishtirok etadigan moddalar va ter bilan tashqariga chiqariladigan nobud bo'lgan hujayra qoldiqlari tushuniladi.⁴

Metabolitlarning o'ziga xosligi va genetik bog'liqligi ularning tarkibi tanadagi boshqa organlarning to'qimalari kabi dezoksiribonuklein kislotasi (DNK) molekulari mavjud.

Yuqorida aytilganlarni zoologlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar sut emizuvchilarda individual kodning mavjud ekanligini tasdiqlaydi. Odamlarda ham har bir insonning individual hidi mavjud ekanligi tadqiqotlar orqali isbotlangan. Masalan, sobiq SSSR ichki ishlar vazirligining ilmiy tadqiqotlar instituti tomonidan hidning individualligini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan ikki mingga yaqin tajribalarda to'rt mingdan ortiq odam ishtirok etgan. Jumladan, ikki yuzta qarindoshlar, to'rt juft egizaklar. Odatiy olinadigan hid namunalari tashqari, qatnashchilardan qurigan qon izlari, 9 yildan 16 yilgacha saqlangan soch tolalari yangi olingan namunalari bilan solishtirilgan.⁵ Odam teri chuqur tadqiqotlar davomida uch qismdan ishqor, neytral suyuqlik va yog'li kislotadan iborat ekanligi aniqlangan. Odamning hidning genetik o'ziga xoslik belgisi faqatgina yog'li kislotada saqlanadi. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, muayyan odam hidi itlar tomonidan hidlanganda o'ziga xos, takrorlanmas hid sifatida qabul qilinishiga sabab shuki, qondan, terdan va boshqa odam to'qimalaridan ajraladigan odam hidi genetik kodlangan muayyan subyektga xos bo'lgan moddalardan iborat bo'ladi.

Tajribalar natijasi hidning ayrim o'ziga xoslik xususiyatlarini tushunishga yordam beradi. Masalan, moddalar almashuvining doimiyliigi va organizmdagi eski hujayralarning yangilari bilan almashishi tirik organizmlar tomonidan hidning doimiy ajralish xususiyatini tushunishga asos bo'ladi. Hidning nisbiy barqarorligi esa nobud bo'lgan hujayralar va moddalar

³ Федоров, Г. В. Одорология: запаховые следы в криминалистике / Г. В. Федоров. – Минск, 2000.

⁴ Федоров, Г. В. Одорология: запаховые следы в криминалистике / Г. В. Федоров. – Минск, 2000.

⁵ Федоров, Г. В. Одорология: запаховые следы в криминалистике / Г. В. Федоров. – Минск, 2000.



almashinuvidagi qoldiqlarning organizm tomonidan uzoq jarayonda qayta ishlanishidan hosil bo'ladigan metabolitlar bilan bog'liq. Hidning yagona molikulyar tuzulishga ega bo'lgan bir turdagi biokimyoviy birikmalardan iborat ekanligi hidning bo'linish xususiyatining asosi sifatida qaraladi.

Yana shuni ham ta'kidlash lozimki, organizmda tashqi va ichki ta'sirlar natijasida turli xil o'zgarishlar kuzatiladi. Turli xil favqulodda sodir bo'ladigan holatlar tirik organizmlar psixikasida javob reaksiyasiga sabab bo'ladi va natijada qondagi adrenalin miqdori ko'payib, hujayralarning yanada faol ishlashiga turtki beradi. Bu esa o'z navbatida hidning paydo bo'lishini va ajralishini yanada tezlashtirib yuboradi. Yuqoridagi fakti voqea joyidan hid izlarini olayotganda e'tiborga olish hid manbasining ekstremal sharoitda bo'lganlik faktini aniqlashda qo'l keladi.

Hidli metabolitlarining paydo bo'lish jarayonini o'rganish odam hidlarning o'ziga xoslik tabiatini va ushbu omilni kriminalistikada to'g'ri foydalanishda muhim ahamiyatga ega.

Kriminalistik odorologiya fani amaliy fan bo'lganligi bois, odorologiyadagi ko'plab masalalar amaliy metodlardan foydalanish yo'li hal qilinadi. Masalan, kimyoviy analiz va sintez metodida hid manbaasi molekulalarining tuzulishi va tarkibi, biologik metodda tirik organizmlarda hid manbaalarining ishlab chiqarilishi, hid bilishning psixofiziologik tabiati o'rganiladi.

Kriminalistik odorologiyada hidlarni tadqiq qilishda odorologik identifikatsiya eng samarali metod hisoblanadi. Jinoyatchilikka qarshi kurashda hid izlaridan foydalanish qoidalari hidlarning fizikaviy, kimyoviy va psixofiziologik xususiyatlariga asoslanadi. Hid izlari bo'yicha itlar yordamida odamni identifikatsiya qilishda natijalarning to'g'riligini ta'minlash uchun itning ayni paytdagi hid bilish qobiliyatining yaxshi ishlayotganligini tekshirish lozim.

Bizga kriminalistika fanidan ma'lumki, har qanday obyektning individuallik xususiyati ushbu obyektga faqatgina shunga tegishli bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarni borligi bilan belgilanadi. Jinoyat izlarini aniqlashda ham aynan ushbu individuallik xususiyatiga asoslangan identifikatsiya metodidan ko'p hollarda foydalaniladi. Identifikatsiya metodi kriminalistikani asosini tashkil qiladigan fundamental metodlardan biri hisoblanadi. Kriminalistik identifikatsiya o'z ichida yana bir necha bo'limlarga bo'linadi va har biri o'z metodiga ega. Kriminalistik identifikatsiya atrofimizdagi shaxs, narsa-buyumlarning individualligi, takrorlanmaslik belgilariga asoslangan holda jinoyatlarni ochish va dalillar to'plashda foydalaniladi.

Bizga ma'lumki har qanday obyektning individuallik xususiyati ushbu obyektga faqatgina shunga tegishli bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarni borligi bilan belgilanadi. Jinoyat izlarini aniqlashda ham aynan ushbu individuallik xususiyatiga asoslangan identifikatsiya metodidan ko'p hollarda foydalaniladi. Identifikatsiya amaliyotda juda ko'p qo'llaniladi.⁶ Masalan, odamlarni tanib olishda, odamning barmoq izlari orqali shaxsni aniqlashda, transport izlari orqali olib qochilgan avtomobilni topishda, o'q va gilzalar orqali qanday quroldan o'q uzilganligini aniqlashda. Shuningdek identifikatsiya rivoji natijasida odamlarni tasvirlab berish

⁶ Щепина, И. В. Современные средства идентификация человека / И. В. Щепина // Современные проблемы правотворчества и правоприменения: материалы Всероссийской студенческой научно-практической конференции. – Иркутск, 2016. – С. 397–401.



asosida chizilgan rasm yoki fotosuratdan foydalanib jinoyatchilarni aniqlash qoidlari yaratildi. Shaxslarni DNK orqali identifikatsiya qilish ham hozirgi kunda keng qo'llanilmoqda.

Yuqorida aytib o'tilgan identifikatsiya metodlari huquqni muhofaza qiluvchi organlar faolyatida juda ham ko'p qo'llaniladi. Lekin doim ham hodisa sodir bo'lgan joyda barmoq izlari, DNKni aniqlash mumkin bo'lgan turli ajralmalar saqlanib qolmaydi. Shuningdek, jinoyatchi niqobda bo'lsa tanib olish va eslab qolish ham qiyin. Shuning uchun ham identifikatsiyaning yangi metodlarini ishlab chiqish lozim. Shunday metodlardan biri odorologik identifikatsiya hisoblanadi. Ushbu metodning istiqbolli deb hisoblanishiga sabab odam qayerda bo'lmasin o'zidan hid izlari qoldiradi.

Yuqorida tanishganimizdek har bir odamning hidi individual bo'ladi va bir birini takrorlamaydi. Odorologik identifikatsiya aynan shu omilga asoslangan. Odorologik identifikatsiyaning vazifasi hid namunlarini olish, ularni muayyan qoidlar boyicha saqlash, hid namunalarini tekshirish orqali jinoyatchining shaxsini, jinoyat ishtirokchilarini, turli vaqt oralig'ida va turli xil joylardan olingan hid namunalarining manbaasini aniqlash, soch, qon, ter-yog' ajralmalari, tirnoq qoldiqlari va boshqalarning kimga tegishliligini aniqlashga yordam beradi.

References:

1. Kriminalistika. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2018, –515 bet.
2. Sud ekspertizasi. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: IIV akademiyasi. 2012, – 323 bet.
3. Салтевский, М. В. Криминалистическая одорология / М. В. Салтевский. — Киев, 2000. — 68 с.
4. Белкин, Р. С. Криминалистика: проблемы, тенденции, перспективы. От теории к практике / Р. С. Белкин. – М., 1988.
5. Федоров, Г. В. Одорология: запаховые следы в криминалистике / Г. В. Федоров. – Минск, 2000.
6. Щепина, И. В. Современные средства идентификация человека / И. В. Щепина // Современные проблемы правотворчества и правоприменения: материалы Всероссийской студенческой научно-практической конференции. – Иркутск, 2016. – С. 397–401.
7. Сулимов, К. Т. Определение давности образования потожировых следов человека с помощью лабораторных собак-детекторов запаха / К. Т. Сулимов, Т. Ф. Моисеева, Е. П. Батаева, С. В. Ковалева, Е. И. Кудрявицкая, Т. Н. Шамонова, Э. П. Зинкевич // Российский следователь. – 1999. – № 3. – С. 39–41.
8. Тельцов, А. П. Одорологический метод как средство установления пространственно-временных связей и отношений // Дальневосточные криминалистические чтения. – Владивосток, 1997. – Вып. 2. – С. 14–17.
9. Шуст, Т. А. Использование одорологического метода в расследовании преступлений / Т. А. Шуст, И. В. Шопен // Социальные, гуманитарно-экономические и юридические науки: современные тренды в изменяющемся мире. Международная научно-практическая конференция. – Ставрополь, 2015. – С. 371–374.